

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING TURLI YOSH GURUHLARIDA QAYTA HIKOYA QILISHGA O’RGATISH ORQALI NUTQ, MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Eshchanova G. O.

UrDU dotsenti

Egamberdiyeva M. K.

UrDU magistranti

Tayanch so‘zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti, turli yosh guruhlari, nutq o‘stirish mashg‘uloti, asarni qayta hikoya qilish, tarbiyachining bolalar bilan birga qayta hikoya qilishi, qismlar bo‘yicha qayta hikoya qilish, ro‘llarga bo‘lib qayta hikoya qilish, o‘yin usuli, muloqot kompetensiyalari.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, разновозрастные группы, занятия по развитию речи, пересказ произведения, пересказ произведения воспитателем с детьми, пересказ по частям, пересказ по ролям, методы, коммуникативные компетенции.

Key words: preschool educational organization, different age groups, speech development classes, retelling of a work, retelling of a work by a teacher with children, retelling in parts, retelling by roles, methods, communicative competencies.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni[1], O‘zbekiston Respublikasimaktabgachata’limtizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining [2] qabul qilinishi maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, shuningdek, eng ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalarini tatbiq etish ustivor vazifa sifatida belgilangan.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilish bu – eshitilgan badiiy asarni ravon, ifodali aytib berish hisoblanadi. Darvoqe, “qayta hikoya qilib berish nisbatan oson nutqiy faoliyatdir”[3].

Negaki, bola tayyor matn mazmunini qayta aytib beradi, bunda u muallifning tayyor nutqiy shakllari bo‘lgan lug‘at, so‘z birikmalari, gaplaridan, matnni o‘qigan tarbiyachi nutqining ifodaliligi usullaridan foydalanadi. Ammo bu bolaning shunchaki takrorlashi emas, balki uning matnni tushungani holda erkin va emotsiyal aytib berishdir.

Qayta hikoya qilish monologik nutqni shakllantirishda birinchi bosqich hisoblanadi. Shu sababli har bir maktabgacha yoshdagi bola qayta hikoya qilishni mukammal egallab olishi lozim. Buning uchun pedagog – tarbiyachi turli innovatsiyon texnologiyalar va usullardan foydalanishi kerak. Quyida ushbu usullarning asosiyalarini ko‘rib o‘tamiz:

1. Tarbiyachi – pedagogning bolalar bilan birga qayta hikoya qilishi;
2. Qayta hikoyani takrorlash;
3. So‘z va jumlalarni aytib turish;
4. Savollar berish;
5. Rag‘batlantirish;
6. Qismlar bo‘yicha qayta hikoya qilish;
7. Ro‘llarga bo‘lib qayta hikoya qilish;
8. O‘yin usuli (sahnalahtirilgan o‘yin).

1. Pedagog - tarbiyachining bolalar bilan birga qayta hikoya qilish usulidan o‘rgatishning dastlabki bosqichida, xususan, hikoya qilib berishda qiynaladigan bolalar bilan ishslashda ko‘proq foydalanish mumkin.

2. Qayta hikoyani takrorlash usulidan maktabgacha o‘rta va katta guruhlarda keng foydalanish mumkin. Bu maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun ancha murakkab usul hisoblanadi [3]

3. So‘z va jumlalarni aytib turish usuli qayta hikoya qilishning ravnligini, izchilligini ta’minlaydi. Bu usul bolaning uzoq muddat pauza – to‘xtalish qilishiga yo‘l qo‘lmaydi. Darvoqe, bu usuldan, asosan, tarbiyalanuvchi asar matnining ba’zi o‘rinlarini esdan chiqarib qo‘yganda foydalangan ma’qul.

4. Savollar berish maktabgacha ta’limda qayta hikoya qilish mashg ‘ulotlarini o‘tkazishda keng qo‘llaniladigan usullardan sanaladi. Bu usul asosan, kirish suhbati jarayonida qo‘llanilsa, mashg ‘ulot samarali bo‘ladi. Qayta hikoya qilishda qo‘llaniladigan savollarni shartli ravishda bir necha turlarga bo‘lish mumkin. Ya’ni matnni qayta hikoya qila olmaydigan tarbiyalanuvchilarga mashgulot boshlanishida ularni yo‘naltiruvchi yordamchi savollar berilishi mumkin: Chunonchi, “Sen nima to‘g‘riida hikoya qilmoqchisan, Turna bilan Tulki haqidami? Qani, sen bilan hikoya qilishni boshlaymiz: “Kunlardan bir kun Turna Tulkini o‘zi bilan olib, osmonga ko‘tarilibdi va unga nima debdi.

Yerni ko‘ryapsanmi? Tulki unga : “Ha, ko‘ryapman, mushtumday”- deb javob beribdi. Mana, endi hikoyaning davomini o‘zing mustaqil davom ettirasan”.

Shu tariqa bola matnni o‘zi davom qildirgan holda qayta hikoya qilib bergach, savol - javob qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu usul bola matn mazmunini qay darajada tushunganligini aniqlashga yordam beradi. Pedagog olima Q.Shodiyevaning fikriga ko ‘ra, ayrim hollarda bola matnni qayta hikoya qilgandan so‘ng unga asar qahramonlarining fe’l – atvori haqida savollar berish mumkin [4]

5. Qayta hikoya qilish jarayonida rag‘batlantirish usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda tarbiyachi – pedagog bolani “Yasha!”, “Barakalla!”, “Ofarin” tarzidagi maqtov so ‘zлari bilan rag‘batlantirib, uning nutqi boyib, ravonlashib borayotganligini ta’kidlab, uni maqtab qo‘yishi kerak.

6. Mashg‘ulotda qismlar bo‘yicha qayta hikoya qilish usuli qo ‘llaganda, bolalarga mazmuni tanish bo‘lgan matn tanlanadi. Pedagog- tarbiyachi asarning ayrim qismlarini tanlab oladi va savollar yordamida bolalarning matnni qayta hikoya qilishiga erishadi.

7. Rollarga bo‘lib qayta hikoya qilish usuli nutqning ifodaliligin shakllantirishga yordam beradi. Bu usul maktabgacha o‘rta guruhdan boshlab mashg‘ulotlarda qo‘llanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi, bizningcha. Tarbiyachi – pedagog matnni rollarga bo‘lib qayta hikoya qilishni boshlashdan oldin, asarda ishtirok etuvchi personajlarning xarakterlarini izohlab bersa, bu bolalar nutqining oydinlashishiga, ta’sirli bo‘lishiga yordam beradi.

8. Ma’lumki, badiiy matnni qayta hikoya qilishning o‘yin usulida obrazlarning gaplari harakatlar bilan amalga oshiriladi. Bunda ishtirokchi bolalar imo – ishoralardan, hayvon va parrandalarning ovozlariga taqlid qilishdan keng foydalanadilar. Biroq, bu usul qo‘llanilganda bolalar uchun hech qanday niqob va dekoratsiyalardan foydalanish talab qilinmaydi. Mashg‘ulot jarayonida tarbiyachi – pedagog muallif nomidan gapirib, bolalarni matn bilan tanishtirib boradi. Shundan keyin bolalarga ham navbat beriladi. Dastlab rolni ijro qilishga nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalar taklif qilinadi. Qayta hikoya qilishning o‘yin usuliga asoslangan mashg‘ulot davomiyligi besh daqiqadan oshmasligi kerak.

Darvoqe, maktabgachata’limtashkilotlarining turliyoshguruhalidagi bolalar bilan mashg‘ulotlar turlicha o‘tkaziladi va ushbu mashg‘ulotlarda bolalarga qo‘yiladigan talablar ham turlicha bo‘ladi. Hikoyaga oid mashg‘ulotlarda doimo keng tarqalgan she‘rlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlarni esga olish maqsadga muvofiqdir. Bu bolalarning emotsiyal kayfiyatini ko‘taradi va ularning qayta aytib bergen hikoyalarini yanada ifodali qilad.

Zero, qayta hikoya qilib berishni o'rgatish vazifasi ilk yosh guruqlaridan boshlab asta - sekin murakkablashtirilib boriladi. Ya'ni bolalarga tanish bo'lgan ertaklar va hikoyalarni aytib berish, yangi o'qib chiqilgan asarlarni aytib berish, hikoya qiluvchini birinchi shaxs nomidan emas, balki uchinchi shaxs nomidan

aytib berish, tarbiyachi – pedagog tomonidan ishlab chiqilgan reja asosida qayta hikoya qilib berish, bolalar bilan birgalikda tuzilgan reja asosida qayta aytib berish, qahramonni, asar mavsumni, mazmunini o'zgartirigan holda qayta hikoya qilib berish , sahnalashtirgan holda, o'yinchoqlar bilan aytib berish, bolalarning o'zlarining tanlovi bo'yicha qayta hikoya qilib berishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning tasavvur asosidagi og'zaki ijodi - to'qima hikoyalari monologik nutq turlaridan biri hisoblanadi. Xayolparast bolalar suratlarning boshlanishi yoki yakunini zo'r qiziqish bilan o'ylab topadilar.

Ular suratlarda tasvirlangan voqealardan oldin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealarni yoki suratda tasvirlangan voqealardan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealarni o'zları o'ylab to'qiydilar; tanish ertaklar yoki hikoyalarni mavzusida mazmunan o'xshash matnlarni tuzadilar, qahramon ya'ni "men" nomidan hikoya qiladilar, matnda yil fasllarini ham o'zgartirishlari mumkin.

Bolalarning ijodini quyidagi tarzda tasniflash mumkin:

- a) suratlar asosida ijodiy to'qima;
- b) badiiy asarlar mavzusidagi kontaminatsiyalar;
- d) ertaklar, hikoyalarni erkin to'qish [5]

Suratlar asosida ijodiy matn to'qishni maktabgacha katta va maktabga tayyorlov yoshdagagi bolalar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy asarlar mavzusidagi kontaminatsiyalar ham keng qo'llanilayotgan usullardan sanaladi. Bolalar katta ishtiyoq bilan o'zlarini sevimli qahramonlari tushib qolgan vaziyatlarga qo'yib ko'radilar, uning harakatlarini o'zlashtiradilar, asar qahramonlarining ayrim vaziyatlardagi sarguzashtlarini ijodiy jihatdan qayta yaratadilar.Taniqli pedagog olima D.Babayeva to'g'ri ta'kidlaganidek, maktabgacha yoshdagagi bolalarning ushbu xususiyatidan ularning oljanob qirralarni rivojlantirishda foydalanilsa, maqsaga muvofiq bo'ladi.

Yaxshilik va go'zallikka qarama-qarshi qo'yilgan ertakdagi hamda real hayotdagi yomonlik va yovuzlik obrazlari ham tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Maktabgacha ta'limda bolalarni hikoya to'qishga o'rgatish metodikasi quyidagicha: bolaga ertak yoki hikoyaning muayyan lavhasini bu xuddi uning o'zi bilan yuz bergani kabi o'z nomidan aytib berish taklif qilinadi. Pedagog - tarbiyachi bola ijodkorligining qay darajada amalga oshayotganini

diqqat bilan kuzatib boradi, o‘zini bolaning har so‘ziga ishonayotgandek qilib ko‘rsatishi lozim.

Binobarin, maktabgacha ta’lim tashkilotlarda adabiy asarlarni qayta hikoya qilish mashg‘ulotlarida tarbiyachi - pedagog o‘z oldiga bolalarning boglanishli nutqini rivojlantirish. matn mazmunini bir-biriga bog‘lab, ketma-ketlik bilan, nutqning ifodali vositalaridan foydalanib, aniq, grammatic jihatdan to‘g‘ri bayon etishga o‘rgatish vazifasini qo‘yadi.

Turli yosh guruqlarida badiiy asarni qayta hikoya qilishga o‘rgatish orqali nutq, muloqot kompetensiyalarini shakllantirishda tarbiyachi – pedagogning bolalar bilan birga qayta hikoya qilishi; qayta hikoyani takrorlash; so‘z va jumlalarni aytib turish; savollar berish; rag‘batlantirish; qismlar bo‘yicha qayta hikoya qilish; ro‘llarga bo‘lib qayta hikoya qilish; o‘yin usulidan keng foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim - tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent. 2019, 16-dekabr. 40 b
- 2.“O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05. 2019. PQ-4312-sonli Qarori.
3. Babayeva D.R.“Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. T.; 2018 .B.-
4. Shodiyeva Q. Nutq o‘stirish uslubiyoti. T.; O‘qituvchi, 2008, B.- 224.
5. Shodiyeva Q. Nutq o‘stirish uslubiyoti. T.; O‘qituvchi, 2008, B.- 225
6. Babayeva D.R.“Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. T.; 2018 .B.-

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turli yosh guruqlarida badiiy asarni qayta hikoya qilishga o‘rgatish orqali nutq, muloqot kompetensiyalarini shakllantirish usullari, xususan, tarbiyachi – pedagogning bolalar bilan birga qayta hikoya qilishi; qayta hikoyani takrorlash; so‘z va jumlalarni aytib turish; savollar berish; rag‘batlantirish; qismlar bo‘yicha qayta hikoya qilish; ro‘llarga bo‘lib qayta hikoya qilish; o‘yin usuli (sahnalashtirilgan o‘yin) masalalari yoritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассмотрены методы формирования речекоммуникативных компетенций путем обучения пересказу художественного произведения в разных возрастных группах дошкольных образовательных организаций, в частности пересказу воспитателем-педагогом совместно с детьми; пересказ истории; произнесения слов и предложений; задавать вопросы; поощрение; пересказ по частям; пересказ по ролям; освещаются вопросы игрового метода (постановочная игра).

SUMMARY

The article discusses the methods of forming speech-communicative competencies by teaching the retelling of a work of art in different age groups of preschool educational organizations, in particular, retelling by an educator-teacher together with children; story retelling; pronunciation of words and sentences; to ask questions; encouragement; retelling in parts; role retelling; questions of the game method (staged game) are covered.

